TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

# O‘QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT”**
**yo‘nalishi**
**“MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILI”**
**moduli bo‘yicha**

# O‘QUV –USLUBIY
# M A J M U A

**Toshkent – 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**


**Tuzuvchi:** TDIU, iqtisod fanlari doktori, professor, Xasanov B.A.

**Taqrizchi:** TTYMI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent Djumanova A.B.



**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

**I.ISHCHI DASTUR**.............................................................................................Ошибка! Закладка не определена.

**II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI**...............................................................................................................10

**III. NAZARIY MATERIALLARI**........................................................................18

**IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**..............................................................47

**V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI**……….........................................................57

**VI. GLOSSARIY**.............................................................................................................58

**VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**.....................................................................73

# I. ISHCHI DASTUR
## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## Modulning maqsadi va vazifalari

“Moliyaviy hisobot tahlili” **modulining maqsadi** boshqaruv, moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilish uchun xo‘jalik subyektlarida resurslardan foydalanish holatini, faoliyat samaradorligini, moliyaviy holatini hamda ularning o‘zgarishlarini, o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, hisob-kitob qilish, baholash yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

“Moliyaviy hisobot tahlili” **modulining vazifalari:**

Moliyaviy hisobot tahlili» modulining vazifasi xo‘jalik subyektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga, ularning ishlab chiqarish – tijorat va moliya faoliyati samaradorligiga, subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga, ularning boshqaruv samaradorligiga obyektiv baho berish, faoliyatning kuchli jihatlari va zaif tomonlarini aniqlash asosida aktivlarning bugungi va kelajakdagi qiymatini oshirishda aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Moliyaviy hisobot tahlili” moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi**:**

***Tinglovchi:***

- moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasini;
- buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlarini;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni, uni tuzish va tahlil etish usullarini;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va umumxo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlarni;
- mahsulot sotishdan ko‘rilgan yalpi foydaga ta’sir etuvchi omillarni;
- moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifini;
- buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini;
- moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tarkibini ***bilishi kerak***;

***Tinglovchi:***

- moliyaviy hisobotni kompilyatsiya va transformatsiya qilish;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tahlil etish;
- buxgalteriya balansining likvidliligini tahlili qilish;
- korxonaning to‘lovga layoqatining tahlil qilish;

- asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini tahlil qilish;
- moliyaviy faoliyatning foydasi (zarari)ni baholash va tahlil qilish;
- favqulodda foyda va zararlarni tahlil qilish;
- pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning tuzish;
- xususiy kapital va uning o‘zgarishini tahlil qilish;
- moliyaviy leverij ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
- xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlil qilishga oid ***ko‘nikmalarini egallashi lozim*;**

***Tinglovchi:***

- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tahlil etish usullaridan foydalanish;
- korxonalar iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish;
- ikkiyoqlama yozuv, baholash va kalkulyatsiyani hisoblash;
- hisob siyosatini yuritish;
- mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumning tahlil qilish;
- favquloddagi foyda va zararlar tahlilini baholash;
- pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri usullarini farqlash;
- ***malakalarini egallashi kerak*;**

**Tinglovchi:**

- hisobning usullari va uning elementlarini hujjatlashtirish va inventarizatsiyalash;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va tahlil etish;
- pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubidan foydalanish;
- moliyaviy leverij ko‘rsatkichlarini tahlil qilish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Moliyaviy hisobot tahlili» moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘quv jarayonida ta’limning interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- ma’ruza mashg‘ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo‘ldoshi”, “Konseptual jadval”, “O‘ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” kabi interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalaridan;
- amaliy mashg‘ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT-tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalarni qo‘llash nazarda tutiladi.

## Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Boshqaruv hisobi”, “Moliyaviy

hisobotning xalqaro standartlari" hamda "Auditning xalqaro standartlari" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar iqtisodiyotning modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish muammolarini aniqlash, ularni tahlil etish, baholash va yechimini topishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Auditoriya o'quv yuklamasi | | | |
| | | jami | jumladan | | |
| | | | Nazariy mashg'ulot | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot |
| 1 | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya, transformatsiya, konsolidatsiya). | 4 | 2 | 2 | |
| 2 | Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari. | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 3 | Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tahlili | 6 | 2 | 2 | 2 |
| 4 | Xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining tahlili. | 2 | | 2 | |
| 5 | Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili. Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlili. | 2 | | 2 | |
| | **Jami:** | **20** | **6** | **10** | **4** |

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya, transformatsiya, konsolidatsiya).**

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya,transformatsiya,konsolidatsiya). Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, uni

tuzish va tahlil etish usullari.

**2-mavzu**. **Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari.**

Buxgalteriya balansining likvidliligi va korxonaning to‘lovga layoqatining tahlili. Korxonalar iqtisodiy va moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko‘rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

**3-mavzu**. **Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tahlili**

Xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va umumxo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlari tahlili. Mahsulot sotishdan ko‘rilgan yalpi foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Moliyaviy faoliyatning foydasi (zarari)ni baholash va tahlil qilish. Favqulodda foyda va zararlar tahlili.Byudjetga to‘lovlar va ajratmalarning tahlili. Sof foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-amaliy mashg‘ulot.

**Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya, transformatsiya, konsolidatsiya).**

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya, transformatsiya, konsolidatsiya). Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, uni tuzish va tahlil etish usullari.

### 2-amaliy mashg‘ulot.

**Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari.**

Buxgalteriya balansining likvidliligi va korxonaning to‘lovga layoqatining tahlili. Korxonalar iqtisodiy va moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko‘rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

### 3-amaliy mashg‘ulot.

**Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tahlili**

Xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va umumxo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlari tahlili. Mahsulot sotishdan ko‘rilgan yalpi foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Moliyaviy faoliyatning foydasi (zarari)ni baholash va tahlil qilish. Favqulodda foyda va zararlar tahlili. Byudjetga to‘lovlar va ajratmalarning tahlili. Sof foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

### 4-amaliy mashg‘ulot.

**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining tahlili.**

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari.

Asosiy faoliyatdagi pul oqimlari tahlili. Moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili. Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubi.

## 5-amaliy mashg‘ulot
## Xususiy kapital va uning o‘zgarishini tahlili. Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlili.

Moliyaviy leverij ko‘rsatkichlarini tahlili. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar). Xususiy kapital va uning o‘zgarishining tahlili. Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlili. Moliyaviy leverij ko‘rsatkichlarini tahlili.

## KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Mazkur modulning o‘quv rejasida “Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari” hamda “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tahlili” mavzularida 4-soat ko‘chma mashg‘ulot rejalashtirilgan.

## O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o‘zlashtirishda quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- **davra suhbatlari** (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- **bahs va munozaralar** (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).
- **Keng ko‘lamli suhbat.** Hamma uchun umumiy bo‘lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mashg‘ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo‘llash bilan: so‘zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o‘ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so‘zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o‘sha vaqtning o‘zida ajratib ko‘rsatish va boshqalar asosida ko‘pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.
- **Press-konferensiya.** Qisqa so‘zga chiqishdan so‘ng, birinchi savol bo‘yicha ma’ruzachiga (agarda ma’ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi ulardan biriga so‘z beradi) so‘z beriladi. Shundan so‘ng, har bir tinglovchi ma’ruza mavzusi bo‘yicha unga savol berishi lozim.
- **Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) yechish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo‘lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo‘nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligini anglab yetishga yordam beradi.

# II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

## 1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va aniq o‘quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun oriyentirlarni shakllantirish.

| |
|---|
| ***Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar***<br>Ma’ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:<br>- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;<br>- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;<br>- faktga asoslangan (statistik va h.k.) materiallarni ko‘p emasligi.<br>Ma’ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo‘lishi kerak. |

**Ma’ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlar**

| O‘quv mashg‘ulotning maqsadi | Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari |
|---|---|
| ***Kirish ma’ruzasi*** | |
| Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash. | Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish. |
| ***Axborotli ma’ruza*** | |
| O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish | Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish. |
| ***Muammoli ma’ruza*** | |

| O‘quv mashg‘ulotning maqsadi | Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari |
|---|---|
| Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an’anaviy va zamonaviy nuqtayi nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish. | Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o‘qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi. |
| ***Ko‘rgazma ma’ruza*** | |
| O‘TVdan keng foydalanish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish. | Bunday ma’ruzani o‘qish, ko‘rib chiqilayotgan ko‘rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi. |
| ***Binar ma’ruza*** | |
| Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish. | Bunday ma’ruzani o‘qish ikki o‘qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o‘qituvchi va talabalarning dialogini o‘zida namoyon etadi. |
| ***Anjuman-ma’ruza*** | |
| O‘quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish. | Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma’ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi mustaqil ish va so‘zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to‘ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi. |
| ***Umumlashtiruvchi ma’ruza*** | |
| Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish. | Ma’ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo‘limlarning ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi. |
| ***Maslahatli-ma’ruza*** | |
| Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish. | Turlicha ssenariy bo‘yicha o‘tishi mumkin.<br>1. “Savol-javoblar”- o‘qituvchi bo‘lim yoki to‘liq kurs bo‘yicha talabalar savollariga javob beradi.<br>2. “Savol-javoblar-munozaralar”: o‘qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi. |
| ***Yakuniy ma’ruza*** | |
| Bilimlarni batafsil yoritish va | Kursni o‘rganishni yakunlaydi, butun davr |

| O‘quv mashg‘ulotning maqsadi | Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari |
|---|---|
| aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish. | mobaynida o‘tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma’ruzada o‘qituvchi kursning asosiy g‘oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o‘rganishda olgan bilimlarni qanday qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, fan bo‘yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi. |

## 2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg‘ulot:

- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulotning o‘qitish shakli.

Amaliy mashg‘ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko‘rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- ko‘rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

## 3. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar

**AQLIY HUJUM METODI**

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo‘llaniladigan metod.

☝Metod chegaralangan vaqt oralig‘i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan’anaviy yo‘llarini izlash bo‘yicha o‘quvchilarni aqliy faoliyatini yo‘naltirishga asoslangan.

☝O‘quv mashg‘ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi hamda o‘quvchilarda faol qiziqish uyg‘otishi kerak;

•ko‘p har xil ma’nodagi yechim variantlariga ega bo‘lishi kerak.

O‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o‘quv mashg‘ulotining bir lavhasi yoki butun mashg‘ulotni o‘tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.




Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

**INSERT TEXNIKASI** INSERT (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib - **INSERT** – **I**nteraktive- interfaol **N**oting – belgilash System - tizim for-uchun **E**ffective – samarali **R**eading – o‘qish and– va **T**hinking – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

1) Samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo‘yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(−) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak.

**PINBORD TEXNIKASI**

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi**:**

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish

variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

## KEYS–STADI METODI

**KEYS** – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi *o‘qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

• keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;

• bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak

• keysni yechish uchun *uslubiy ko‘rsatmalar* bo‘lishi kerak.

**Keys–stadi** (ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlarmetodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

• muammoni shakllantirishga;

• amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;

• muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)

2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

- savolli ( savollar keysdan keyin keltiriladi)

- topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

## O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

## GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

**KLASTER** (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li-barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

**Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana-"yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

**“NIMA UCHUN?” SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**“Nima uchun?” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib “Nima uchun?” so‘rog‘ini yozing.

2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

**«BALIQ SKELETI» CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:




2. “Suyak”ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

**“QANDAY?” IYERARXIK DIAGRAMMASI -** muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**“Qanday?” diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma**

“Qanday?” diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda “Nima qilish kerak?” haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan “Buni qanday qilish kerak?” qabilida bo‘ladi. “Qanday?” - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda “Qanday?” savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

*Maslahat va tavsiyalar:*

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

# III. NAZARIY MATERIALLARI

## 1-Mavzu: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi.

**Reja:**

1.1. Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya,transformatsiya,konsolidatsiya).

1.2.Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi

1.3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, uni tuzish va tahlil etish usullari.

### 1.1.Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning konseptual asoslari va xalqaro tajribasi (kompelyatsiya,transformatsiya,konsolidatsiya).

Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi moliyaviy hisobotlar hisoblanadi. Moliyaviy hisobot ana shu hisobotlarga asoslangan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan izohlar, mo‘ljallar va tushuntirishlarni ham o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari, xususiy kapital to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlaydi, shuningdek ularga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik subyektiga tegishli bo‘lgan quyidagi jihatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ta’minlaydi:

(a) aktivlar;

(b) majburiyatlar;

(v) kapital;

(g) daromad va xarajatlar, jumladan foyda va zararlar;

(d) mulk egalari tomonidan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi qilingan

qo‘yilmalar va ularga taqsimlanadigan summalar; va

(ye) pul oqimlari.

Ushbu ma’lumotlar, izohlardagi boshqa ma’lumotlar moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga tadbirkorlik subyektining kelgusi pul oqimlarini va, xususan, ularning muddatini va aniqliligini bashorat qilishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotlarning to‘liq to‘plami quyidagilarni qamrab oladi:

(a)davr oxiriga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;

(b)davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;

(v)davr uchun kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;

(g)davr uchun pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;

(d)izohlar, ya’ni ahamiyatli hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma’lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;

(da) oldingi davr uchun qiyosiy ma’lumotlarni;

(ye) moliyaviy holat to‘g‘risidagi oldingi davrga tegishli (retrospektiv tahlil yuzasidan) ma’lumotlarni

Tadbirkorlik subyekti moliyaviy hisobotlarning to‘liq to‘plamida barcha moliyaviy hisobotlarni teng darajada taqdim etishi lozim.

Ko‘pgina tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy hisobotlardan tashqari, tadbirkorlik subyektining rahbariyati tomonidan tayyorlangan uning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining asosiy jihatlarini hamda u duch keladigan asosiy noaniqliklarni sharhlaydigan va tushuntiradigan moliyaviy tahlilni ham taqdim etadilar. Bunday hisobot quyidagilarning o‘z ichiga olishi mumkin:

(a) moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta’sirlar, jumladan tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatadigan muhitdagi o‘zgarishlar, tadbirkorlik subyektining ushbu o‘zgarishlarga javoban choralari va ularning ta’siri, hamda tadbirkorlik subyektining moliyaviy natijalarni saqlab qolish va ko‘paytirishga qaratilgan investitsion siyosati, jumladan uning dividend siyosati;

(b) tadbirkorlik subyektining faoliyatini moliyalashtirish manbalari va u tomonidan ko‘zlangan majburiyatlarning kapitalga nisbati koeffitsiyenti; va (v) tadbirkorlik subyektining MHXSlarga muvofiq moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinmagan resurslari.

Tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy hisobotlardan tashqari, ekologik hisobotlar va qo‘shilgan qiymat to‘g‘risidagi rasmiy axborotlar kabi hisobotlarni va rasmiy axborotlarni, xususan ekologik omillar ahamiyatli bo‘lgan sohalarda va qachonki xodimlar ahamiyatli foydalanuvchilar guruhi sifatida inobatga olinganda, taqdim etadilar.

Moliyaviy hisobtlar tahlilida o‘rganiladigan mavzularni quyidagicha tarkiblash mumkin:

Moliyaviy hisobotlar tahlilining umumiy mavzulari:

-Buxgalteriya alnsi va moliyaviy holat tahlili;

-Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili;

-Pul oqimlari va valyuta mablag‘lari harakatini tahlili

-Xususiy kapital tahlili

-Moliyaviy hisobotlarni kompleks tahlili

Moliyaviy hisobotlarning birlik mavzulari:

-Investitsion faoliyat va investitsion jozibadorlik tahlili

-Bozor va ish aktivligi tahlili

-Kreditga layoqatlik tahlili

-Iqtisodiy nochorlik tahlili

-Moliyaviy indikatorlar tahlili

-Risklar tahlili va h.k.

Xo‘jalik subyekti joriy davrning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan barcha summalar bo‘yicha oldingi davrga nisbatan qiyosiy ma’lumotlarni taqdim etishi lozim. Bu jihatdan xo‘jalik subyekti kamida, ikkita moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotlarni, ikkita foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotlarni, ikkita alohida foyda yoki zarar to‘g‘risidagi hisobotlarni (agarda taqdim etiladigan bo‘lsa), ikkita pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotlarni va ikkita kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni hamda tegishli izohlarni taqdim etishi lozim. Bu holat, ma’lumotlarni qiyoslashni, ularni tahlil etishning zaruriyligini belgilab beruvchi asosiy shartdir.

**Investitsion tahlil.** Investitsion tahlil- bu investorlarning samarali qaror qabul qilishi uchun investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini ishlab chiqish, asoslash va baholash uchun bajariladigan metodik va amaliy uslublar, usullar majmuidir.

Mulkchilikshaklidan qatiy nazar har bitta korxonaning asosiy maqsadi foyda olish va iqtisodiy saloxiyatni o‘stirishga qaratilgan. Investitsiyalar ushbu maqsadga erishishning vositasidir. Ammo, har bir sarmoyadorning qarorlari muvafaqiyatli bo‘lishi uchun investitsion tahlil natijalariga asoslangan bo‘lishi lozim.

To‘g‘ri va o‘z vaqtida o‘tkazilgan investitsion tahlil quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

-investitsiyalarning real ehtiyojlarini va investitsiyalar uchun zarur shart sharoitlarning mavjudligini baholash;

-korxonaning taktik va strategik maqsadlarini inobatga olgan holda sarmoyaviy yechimlarini tanlash;

-investitsiyalarning haqiqiy natijalariga, rejalashtirilgan lekin rejadan chetga chiqishlarga ta’sir etuvchibarcha omillarni aniqlash;

- investitsiyalarni amalga oshirishda investorlar uchun xavf xatarlarni;

-korxonalarning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash yuzasidan investitsion monitoringdan keyingi tavsiyalarni ishlab chiqish.

Investitsion tahlilning turlari bo‘yicha: kapital qo‘yilmalarga investitsiyalar; moliyaviy investitsiyalar tahliliga.

Investitsiyalar obyekti bo‘yicha: to‘liq korxona tahlili; alohida investitson jarayonlar tahliliga.

Davri bo‘yicha: investitsiya oldi; joriy, opreativ; investitsion faoliyatdan

keyingi tahlil.

Analitik izlanishlar xajmi bo‘yicha to‘liq va tematik tahlil turlariga;

Shakli bo‘yicha investitsion tahlil: ichki va tashqi tahlil turlariga ajratiladi.

Investitson tahlil quyidagi tizimli ketma ketlikda utkaziladi:

-zarur axborotlarni tanlash va tayyorlash;

-dastlabki axborotni qayta ishlash va tahliliy axborotni shakllantirish;

-analitik axborotni talqin qilish;

-xulosa va tavsiyalarni tayyorlash.

Investitsion tahlil iikt muhim bosqichni o‘z ichiga oladi.Ularning har bir o‘z ichiga yana bir necha bosqichlarni oladi.

1-investitsion loyihaning smaradorligini baholash;

2-risklarni baholash.

Investitsion tahlilda moliyaviy tahlilning gorizontal, vertikal, trend, qiyoslash, koeffitsent, integral usullaridan foydalaniladi.

**Qimmatli qag‘ozlar tahlili.** Tahlilning maqsadi –qimmatli qag‘ozlar bo‘yicha kelajakdagi xatti xarakatni aniqlik bilan taxmin qilishga qaratilgan. Tahlil qilmasdan sarmoyadorlar bozorda nima bo‘layotganligini bila olmaydilar.

Eng istiqbolli kompaniyalar-emitentlar ham oxir oqibatda muvafaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Boshqa tomondan kichiq va noqobil kompaniyalar tez va kutilmagan tarzda natijalariga erishib ularning ulushi keskin ortib ketishi mumkin.

Barcha ishtirokchiyalar kaysi kompaniyalar rivojlanib ketmoqda, qaysilari rivojlanishi sekinlashgan yoki orqaga ketganliga qarab aksiyalarni sotib olish yoki sotish yuzasidan qimmatli qag‘ozlarni tahlil qilishga kirishadilar.

Qimmatli qag‘ozlarning odatda fundamental va texnik tahlil turlari tarkiblanadi.

**Moliyaviy hisobotni bashoratlash.** Boshqaruv har doim kelajakka yo‘nalitirilgan bo‘ladi. Bo‘lib o‘tgan jarayonning ortga qaytarib bo‘lmaydi. Lekin uning natijalariga qarab kelajakni rejasini tuzish, kelajakdagi boshqaruvning optimalligini, smaradorligini taminlash choralarini ko‘rish mumkin.

Moliyaviy hisobotlarni bashoratlash nima uchun kerak? Moliyaviy hisobotlarni bashoratlash asosida moliyaviy xolat, natija, pul harakati, kapital o‘zgarishidagi har qanday ko‘rsatkichni oldindan kutilishini bashoratlash mumkin.

Bashoratlash moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida hisob-kitob qilinadigan har qanday ko‘rsatkichni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu esa korxonaning moliyaviy holati, natijalari, pul oqimi yuzasidan oddindan kutilishi mumkin bo‘lgan xolatni aniqlashga imkon beradi. To‘g‘ri, oldindan aniqlangan

ko‘rsatkichning aniqligi ta’minlab bo‘lmaydi. Chunki unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek boshqaruv apparti tomonidan qabul qilinadigan qarorlar aniqlikni qay jihatdandir o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Bashoratlashda murakkab modellashtirish tizimidan foydalaniladi. Risklar baholash masala bu borada o‘ta murakab va qiyin jarayon hisoblanadi.

Balans moddalarini bashoratlashda kuyidagi modellardan foydalaniladi.

1) Buxgalteriya balansi moddalarini fiksatsiyalash metodi - prognozlashtirish davrida balansning shunday moddalariga nisbatan qo‘llaniladiki ular ma’lum davriylikda o‘zgarishsiz qoladi. Masalan Ustav kapital, Qo‘shilgan kapital, Uzoqmuddali moliyaviy qo‘yilmalar, O‘zoq muddatli majburiyatlar va h.k.

2) Buxgalteriya balansi moddalari orasidagi proporsional bog‘liqlik metodi.

Misol uchun, administrativ va tijorat xarajatlarini, to‘lovga qabul qilingan majburiyatlar va h.k.larning sotish xamiga bog‘liqligi. Ayrim ko‘rsatkichlar mahsulotlarni sotish hajmiga emas balki ishlab chiqarilgan, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari o‘zgarishiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Masalan, kreditorlik majburiyatlarining ortishi, majburiyatlar bo‘yicha zaxiralarning tashkil etilishi kabi.

3) Regressiv tahlil metodi. Indikatorlar orasidagi barqaror munosabatlar mavjudligi sharoitida statistik mutanosiblikka asoslangan usul hisoblanadi.

4) Ekspert baholash metodi. Murakkab vazifalarni hal etishda foydaldaniladigan usul.

5) Doimiy o‘sish metodi.Alohida koeffitsentlarning doimiy o‘sish suratlarini belgilash usuli. Masalan uzoq muddatli qarzlar, mamuriy va savdo xarajatlari, belgilangan xarajdatalarning boshqa turlarining o‘sishi. Indikatorlarning o‘sish suratlari o‘rtacha qiymatlarni emas balki murakkab o‘rtacha yillik o‘sish suratlari darajasida qo‘llanishi kerak.

6) Elementar rejalashtirish metodi. Xar bir obyekt uchun rejalashtirilgan sxema, rejalar mavjudligi, moliyaviy hisobot maqomini tashkil etuvchi shu kabi obyektlar guruhi nazarda tutiladi.

Ushbu metoddan amortizatsiya xarajatlarini bashoratlashda, uzoq muddatli qarzlarni qoplashda foydalanish mumkin.

Moliyaviy tahlilning modelli tarkibi quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi.

-dastlabki ma’lumotlar bazasi;

-hisob-kitoblar;

-oraliq javdallar;

-natijalar;

- grafiklar.

Moliyaviy hisobotlarni bashoratlashda har qadamda kompaniya

rahbariyatining xatti xarakatlarini tanlash zaruriyati bilan yuzma yuz kelishi mumkin va bu tabiiy hol hisoblanadi.

Agar kompaniya muayyan choralarni ko‘rishni xoxlamasa uz o‘zidan holat yanada yomonlashib boraverishi mumkin.

Asosiy jihatlar taqsimlanmagan foydani qayerga yo‘naltirish lozimliga, uzoq muddatli aktivlarning qaysi turlarini olib kelish lozimliga, moliyaviy qo‘yilmalarni qayerlarga joylashtirishga, xususiy kapitalni o‘stirishga qaratilmog‘i lozim.

Bashoratlashdagi eng muhim masalalardan biri bu inflyatsiya darajasi bo‘yicha aniq ma’lumotlarga tayanilishi bilan izohlanadi

## 1.2.Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi

Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarning jadalligi zamonaviy buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning ham mazmunini tubdan yangi shakl va mazmunda yuritishni talab etmoqda. Hozirgi sharoitda moliyaviy hisobotlar tahlilining muhimligini shu bitlan aniq izohlash mumkinki ushbu predmet alohida fan sifatida shakllangan. Mulk egalari, sheriklar va xamkorlar, mol yetkazib beruvchi va xaridorlar,  qarpz beruvchi va oluvchilar, nazorat va taftish organlari, kontrigentlarning keng qamrovli tarkibi xo‘jalik subyektining moliyaviy ahvoli va undagi o‘zgarishlarni baholashning konseptual asoslari tubdan yangidan tuzib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasining aloxida qabul qilingan Buxgalteriya hisobi, Audit to‘g‘risidagni konunlari, qator Kodekslar (byudjet, soliq, mehnat, investitsiya,) normalari asosida tashkil etilayotgan hisob xizmatlarining  mazmuni tubdan o‘zgarmoqda.

Moliyaviy hisobot - xo‘jalik yurituvchi subyekt alohida mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektligi yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat’i nazar shu xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum bir davrdagi faoliyatini ko‘rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir.

Moliyaviy hisobot - buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-buxgalteriya balansi;

-moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot;

-pul oqimlari haqidagi hisobot;

-xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;

-izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan

tuziladi.

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisoboti byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Banklar va boshqa kredit tashkilotlari moliyaviy hisobotining tarkibi hamda mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Asosiy xo‘jalik jamiyati bo‘lgan va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga, o‘z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi subyekti konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi.

Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi subyekti moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o‘z vakolatxonalarining, filiallarining va boshqa tarkibiy bo‘linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini kiritishi kerak.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek asosiy xo‘jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi.

Moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- davlat soliq xizmati organlariga;
- ta’sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

**1-jadval**

**Moliyaviy hisobot shakllari va ularning axborotligi**

| **Hisobot shakllari** | | | |
|---|---|---|---|
| **Buxgalteriya balansi** | **Foyda va zarar haqida hisobot** | **Kapital to‘g‘risidagi hisobot** | **Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot** |
| Iqtisodiy resurslar haqidagi, likvidlik va to‘lovga kobillik haqidagi, korxonaning o‘zgarishlarga adabtatsiya qilish kobilyatini baholash | Resurslar basini yuzasidan pul oqimlarining ijobiy saldosini, faoliyat natijasi va rentabellik haqidagi axborotlarni beradi | Korxonaning operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyat natijasini baholashga, korxonaning pul ishlab topish kobilyati, ushbu mablag‘larga korxonaning | Korxoaning sof aktivlar qiymatini baholashga, to‘lovga kobillik va likvidlikni baholashga, pul mablag‘larini samarali boshqarish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| to‘g‘risidagi axborotlarni olishga imkon beradi | | zaruriyatini baholash imkon beradi | to‘g‘risidagi axborotlarni olish imkonini beradi |

Moliyaviy hisobot elektron hujjat tarzida taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobot yilning har choragida taqdim etiladi. Kichiq korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek sug‘urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi subyekti boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e’lon qilishi shart.

Buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Boshlang‘ich hisob hujjatlariga asoslangan, buxgalteriya hisobi registrlarida, moliyaviy hisobotlarda, tushuntirishlarda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarda aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi qayta ishlangan ma’lumotlar- buxgalteriya axboroti deb yuritiladi.

Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablarni buxgalteriya hisobi standartlari belgilaydi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni buxgalteriya hisobining milliy standartlari belgilaydi.

Xo‘jalik subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llashlari mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek sug‘urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi subyekti boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e’lon qilishi shart.

Ko‘pgina tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy hisobotlardan tashqari, tadbirkorlik subyektining rahbariyati tomonidan tayyorlangan uning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining asosiy jihatlarini hamda u duch keladigan asosiy noaniqliklarni sharhlaydigan va tushuntiradigan moliyaviy tahlilni ham taqdim etadilar. Bunday hisobot quyidagilarning tahlilini o‘z ichiga olishi mumkin:

(a) moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta’sirlar, jumladan tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatadigan muhitdagi o‘zgarishlar, tadbirkorlik subyektining ushbu o‘zgarishlarga javoban choralari va ularning ta’siri, hamda tadbirkorlik subyektining moliyaviy natijalarni saqlab qolish va ko‘paytirishga qaratilgan investitsion siyosati, jumladan uning dividend siyosati;

(b) tadbirkorlik subyektining faoliyatini moliyalashtirish manbalari va u tomonidan ko‘zlangan majburiyatlarning kapitalga nisbati koeffitsiyenti;

(v) tadbirkorlik subyektining MHXSlarga muvofiq moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinmagan resurslari.

**Moliyaviy hisobotlarning elementlari:** aktivlar, majburiyatlar, xususiy sarmoya, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar

Tadbirkorlik subyekti o‘zining, pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan tashqari, moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida tayyorlashi lozim. Buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qo‘llanilganda, tadbirkorlik subyekti moddalarni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar elementlarini) sifatida tan oladi, qachonki ular Konseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta’riflariga va tan olish mezonlariga to‘g‘ri kelsa.

Aktivlar - subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

**Aktivlar -** xo‘jalik subyektining qiymat bahosiga ega bo‘lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda, xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo‘shiladigan ulushdir. Bu ulush xo‘jalik yurituvchi subyekt asosiy faoliyatining bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa voqealarning natijasidir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar odatda aktivlarni sotib

olib yoki hosil qilib unga ega boʻladilar, biroq, boshqa bitimlar va voqealar aktivlarni koʻpaytirishga imkon beradi. Masalan, xoʻjalik yurituvchi subyekt hukumatdan olgan koʻchmas mulk. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar oʻzidan oʻzi aktivlarning paydo boʻlishiga olib kelmaydi.

Xoʻjalik yurituvchi subyekt oʻz aktivlaridan mulkni, tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishni va xizmatlar koʻrsatilishini boshqarish uchun foydalanadi.

Aktivlarda aks ettirilgan boʻlgʻusi iqtisodiy foyda xoʻjalik yurituvchi subyekt tomonidan har xil yoʻllar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivdan:

-Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;

-Boshqa aktivlarga almashtirilishi;

- Majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;

- Xoʻjalik yurituvchi subyektning egalari oʻrtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar binolar, inshootlar va uskunalar singari jismoniy shaklga ega. Biroq, jismoniy shakl aktivning mavjud boʻlishi uchun zarur emas. Masalan, patentlar va mualliflik huquqlari aktivlardir, agar xoʻjalik yurituvchi subyekt kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan boʻlsa.

Aktivlar, masalan, debitorlik qarzlari va mulk yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bogʻliqdir. Aktiv mavjudligini aniqlashda, egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi, agar xoʻjalik yurituvchi subyekt ana shu mulkdan olinishi kerak boʻlgan foydani nazorat qilsa.

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish oʻrtasida uzviy aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar hamma vaqt ham vaqti boʻyicha toʻgʻri kelmaydi. Xoʻjalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar boʻlgʻusi iqtisodiy foyda izlanganidan dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi obyektni aktiv deb hisoblash uchun asos boʻlmaydi. Masalan, xoʻjalik yurituvchi subyektga tekinga berilgan obyektlar aktivlarni ta’riflashga mos keladi.

**Xususiy sarmoya** - subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir.

Xususiy sarmoya ustav, qoʻshilgan, zaxiralar sarmoyasi va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qoʻshilgan, zaxira sarmoyalari tahliliy jihatdan aloxida hisobga olinadi. Buxgalteriya balansidagi xususiy sarmoyaning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bogʻliqdir.

**Majburiyatlar -** shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni

bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy mas’uliyatli ekanligi majburiyatning asosiy tavsifidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida kuchga kirishi mumkin. Masalan, olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to‘lanadigan summalar. Majburiyatlar oldin tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki xolisona tarzda ish ko‘rishda ham yuzaga keladi. Masalan, agar xo‘jalik yurituvchi subyekt kafolat muddati tugaganidan so‘ng o‘z mahsulotidagi kamchiliklarni tuzatish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, shu bo‘yicha qilingan xarajatlar ham majburiyatlar deb hisoblanadi.

Hozirgi majburiyat bilan kelgusi majburiyat o‘rtasida chegara bo‘lishi kerak. Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyat paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmaydi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivni sotib olish to‘g‘risida bitimga kirishgandagina paydo bo‘ladi.

Tegishli majburiyatni bajarish odatda boshqa tarafning e’tirozlarini qondirish uchun iqtisodiy foydani ifodalovchi xo‘jalik yurituvchi subyekt resurslarini o‘ziga jalb etadi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi:

-xaq to‘lash bilan;

-boshqa aktivlarni berish bilan;

-xizmatlarni ko‘rsatish bilan.

Ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali;

Majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali. Majburiyat, kreditor o‘z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum bo‘lganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki o‘tgan voqealarning natijasidir. Masalan, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va xizmatlarni olish bilan to‘lanishi kerak bo‘lgan (agar ular ilgari to‘lanmagan bo‘lsa yoki yetkazib berilganda) schyotlar ham olinadi.

**Zahiralar** - kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo‘lgan xususiy sarmoyaning bir qismidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo‘shimcha tarzda himoya qilishni ta’minlash uchun zaxiralarni vujudga keltirish zarur. Zaxiralarni hosil qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Zaxiralarni vujudga keltirish xo‘jalik yurituvchi subyektga doir qonunchilikda va ustavda

(soliq qonunlarini buzmagan holda) ko‘zda tutiladi.

**Daromadlar -** hisobot davrida aktivlarning ko‘payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir.

Yalpi daromad xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan rentadan olinishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt asosiy bo‘lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlar daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o‘z ichiga oladi va konseptual asosning alohida tarkibiy qismlari deb hisoblanmaydi.

Birjada muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo‘lmagan faoliyat natijasida paydo bo‘ladigan daromadlarga misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday daromadlar, agar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda e’tirof etilsa, alohida ko‘rsatiladi, chunki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo‘lishi mumkin.

Soliqqa tortiladigan daromad (zarar) - soliq qonunlariga muvofiq belgilangan hisobot davridagi daromad (zarar) summasidir.

**Xarajatlar -** hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko‘payishidir.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va zararlar bilan bog‘liq. xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag‘lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo‘ladi.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va konseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko‘rsatiladigan bo‘lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lishi mumkin va shuning uchun ham ular alohida ko‘rsatiladi.

**Moliyaviy natijalar** - xo‘jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo‘li bilan ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati davomida va faoliyat jarayonidagi

favqulodda holatlarda yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlarning moddalari o‘rtasidagi chegara umumiy qabul qilingan amaliyotdir. Bunday chegaralash xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag‘larini ko‘paytirish qobiliyatiga baho berishda ahamiyatli bo‘lgan moddalarning manbalari asosida o‘tkaziladi. Moddalarni chegaralashda xo‘jalik yurituvchi subyektning tabiati va uning faoliyati bilan hisoblashish kerak. Bitta xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati natijasida paydo bo‘ladigan moddalar boshqalariga qaraganda favqulodda bo‘lishi mumkin.

Daromadlar va xarajatlarning moddalari o‘rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo‘jalik yurituvchi subyektning ish natijalarini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo‘limlar har xil moddalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot soliqqa tortilishgacha va undan keyingi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadni ko‘rsatadi.

Omonat egalarining xususiy sarmoyaga ulushlari daromad hisoblanmaydi; xususiy sarmoyaning egalari o‘rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi.

Daromadlar va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy farq qiluvchi jihatlarini ochib beradi, lekin ularni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda e’tirof etiщdan oldin javob berishi lozim bo‘lgan mezonlarni aniqlashtirmaydi.

## 2-mavzu. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari.

**Buxgalteriya balansi.** Buxgalteriya balansi ma’lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlarini holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir.

“Balans” atamasi lotincha bis ikki marta, banx - tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ikkala palla degan ma’noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (to‘zilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish obyekti, tozalash usuli) bo‘yicha turlarini tarkiblash mumkin.

**2-jadval**

**Buxgalteriya balansini turlari**

| **Buxgalteriya balansi to‘zilish vaqtiga ko‘ra** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Tashkil topish balansi** | **Joriy balanslar** | **Tugatish balansi** | **Bo‘lish balansi** | **Birlashtirish balansi** |
| Korxonaning tashkil topish vaqtida to‘ziladi. | Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda | Korxona tugatilganda to‘ziladi | Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo‘linish vaqtida | Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda to‘ziladi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | belgilangan muddatlarda to‘ziladi | | | |
| **Axborot hajmi bo‘yicha balanslar** | | | | |
| **Bir martalik** | | **Yig‘ma balans** | | |
| Bir martalik balans faqat bitta korxona bo‘yicha joriy hisob asosida to‘ziladi. | | Yig‘ma balans bir martalik balanslar asosida to‘ziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo‘mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo‘jalik mablag‘larini aks ettiradi. | | |
| **Aks ettirish obyektiga ko‘ra** | | | | |
| **Mustaqil balans** | | **Alohida balans** | | |
| Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo‘lgan barcha korxonalar tuzadi. | | Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo‘linmalari (filiallar, bo‘limlar, sho‘ba va qaram xo‘jaliklar va shu kabilar) tuzadi. | | |
| **Aks ettirish obyektiga ko‘ra** | | | | |
| **Balans-brutto** | | **Balans-netto** | | |
| Tartibga soluvchi moddalarni o‘z ichiga oluvchi balansdir | | Balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi. | | |

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uzluksiz faoliyatida iqtisodiy resurslar harakatga keltiriladi va ularning to‘zilishi doimo o‘zgarib turadi. Ushbu o‘zgarishlarni buxgalteriya balansida to‘rtta jihatini harakaterlash lozim. Birinchi jihat o‘zgarish aktiv va passiv tomonning o‘sishini harakterlaydi, ikkinchi jihat o‘zgarishlar har ikki tomoning kamayishini, uchinchi jihat o‘zgarishlar faqat aktiv tomonning o‘zgarishini, to‘rtinchi jihat o‘zgarishlar faqat passiv tomonning o‘zgarishlarini harakterlaydi.

**3-jadval**

**Buxgalteriya balansidagi o‘zgarishlar**

| **Balansdagi o‘zgarishlar** | | | |
|---|---|---|---|
| A+X1=P+X1 | A-X2=P-X2 | A+X3-X4=P | A=P+X4-X4 |
| Aktiv tamon ham passiv tomon ham ortadi | Aktiv tamon ham passiv tomon ham kamayadi | Ko‘payish va kamayish aktiv tomonda kuzatiladi | Ko‘payish va kamayish passiv tomonda kuzatiladi |
| Balans summasi ortadi | Balans summasi kamayadi | Balans summasi o‘zgarmaydi | Balans summasi o‘zgarmaydi |

Buxgalteriya balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgilar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo‘lishi mumkin.

**4-jadval**

**Buxgalteriya balansi aktiv tomoni klassifikatsiyasi**

| Aktivlar (A) | | | |
|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli aktivlar (UMA) | | Joriy aktivlar (JA) | |
| Moliyaviy bo‘lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA) | Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar (MUMA) | Moliyaviy bo‘lmagan joriy aktivlar (MBJA) | Moliyaviy joriy aktivlar (MJA) |
| Pul ko‘rinishida bo‘lmagan aktivlar (PKBM) | | | Pul ko‘rinishidagi aktivlar (PKM) |
| Kiyin sotiladigan aktivlar (QSA) | Likvid aktivlar (LA) | | |

**5-jadval**

**Buxgalteriya balansi passiv tamoni klassifikatsiyasi**

| **Passiv (P)** | | | |
|---|---|---|---|
| **Uz mablag‘lari manbayi (UMM)** | **Majburiyatlar (M)** | | |
| Xususiy kapital | Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UM) | Qisqa muddatli kredit va qarzlar(KM) | Kreditorlik majburiyati(K) |
| Doimiy passivlar (DP) | Majburiyatdagi passivlar (MP) | | |

**Balansdagi ifodalar:**

**Umumiy ifodalar**

A=P (2.1)

UMA+JA= O‘MM+M (2.2)

MBUMA+MUMA+MBJA+MJA=O‘MM+UM+QM+K (2.3)

PKBA+PKA=DP+MP (2.4)

**Birlik ifodalar**

UMA=MBUMA+MUMA (2.5)

JA=MBJA+MJA (2.6)

PKBA=MBUMA+MUMA+MBJA (2.7)

LA=MUMA+MBJA+MJA (2.8)

Moliyaviy bo‘lmagan uzoq muddatli aktivlar- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o‘rnatiladigan uskunalar, kapital qo‘yilmalarni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy uzoq muddtli aktivlarga uzoq muddatli investitsiyalar kiritiladi.

Moliyaviy bo‘lmagan joriy aktivlarga ishlab chiqarish zaxiralari, tugalllanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr harajatlari, kechiqtirilgan harajatlari va debitorlik majburiyatlari kiradi.

Moliyaviy joriy aktivlarga pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar va boshqa joriy aktivlar kiradi

**6-jadval**

**Aktivlarning turli shakllari o‘rtasidagi a’loqadorlik**

| Aktivlar shakli | Moliyaviy bo‘lmagan aktivlar | Moliyaviy avktivlar | Jami aktivlar |
|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli aktivlar | MBUMA | MUMA | UMA |
| Joriy aktivlar | MBJA | MJA | JA |
| Jami aktivlar | MBA | MA | A |

**7-jadval**

**Aktivlarni mazmuni bo‘yicha tarkiblanishi**

| Aktivlarni manbalashni mazmuni | | |
|---|---|---|
| Xususiy (XK)* | Qarzga olingan (QK) | |
| | Tashqi qarz (TQ)** | Ichki qarz (IQ)*** |
| *-O‘z mablag‘lari manbasi | **-Uzoq va qiska muddatli kreditlar va qarzlar, kreditorlik majburiyatlarining tashqi qismi | ***-Kreditorlik majburiyatlarini ichki qismi |

Xususiy kapital-o‘z ichiga ustav kapitali, ko‘shilgan kapital, rezerv kapitali taqsimlanmagan foyda va uz mablag‘alari manbayining boshqa tarkiblarini (maqsadli tushumlar, kelgusi davr harajatlari va to‘lovlari zaxirasi) oladi.

Tashqi qarz- bank kreditlari va qarzlarini, olingan avans to‘lovlarini, kreditorlik majburiyatlarining mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qismini o‘z ichiga oladi.

Ichki qarz- korxonaning mehnat haqidan, soliklar, to‘lovlar va yigimlar bo‘yicha qarzidan, jalb qilingan qarz mablag‘lari yuzasidan foizlar, aksionerlarga elon qilingan dividendlar bo‘yicha majburiyatlardan iborat bo‘ladi

**8-jadval**

**Buxgalteriya balansi moddalarining mulkiy egaligi bo‘yicha tuzilishi**

| Mulk | O‘ziga tegishli mulk | Qarzga olingan mulk | Jami |
|---|---|---|---|
| Pul ko‘rinishida bo‘lmagan mulk (PKB)=MBUMA+ MUMA+ MBJA | XK (PKB) | QK(PKB) | PKB |
| Pul ko‘rinishidagi mulk(PK)=MJA | XK(PK) | QK(PK) | PK |
| Jami mulk | XK | QK | A |

**9-jadval**

**Buxgalteriya balansidagi moddalarning o‘zgarishlar**

| **Mulk** | **Davr boshiga debet qoldik** | **Xususiy mulk** | **Qarzga olingan mulk** | **Davr oxiriga debet koldiq** | **O‘sish darajasi** |
|---|---|---|---|---|---|
| Davr boshiga kredit koldig‘i | Ab | XKb | QKb | - | - |
| Pul shaklidagi bo‘lmagan mulk (PSHBM) | PSHBMb | <XK (PKB) | <QK (PKB) | PSHBMo | <PSHBM |
| Pul shaklidagi mulk (PSHM) | PSHMb | <XK(PK) | <QK (PK) | PSHMo | <PSHM |
| Davr oxiriga kredit koldig‘i | - | XKo | QKo | Ao | - |
| O‘sish darajasi | - | <XK | <QK | - | <A |

Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o‘rinda turadi va undagi ko‘rsatkichlarni tahlil etish va baholash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvolidan voqif bo‘linadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy axvolidagi o‘zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida qo‘yidagi bog‘lanishdan foydalaniladi.

Pul1 => Tovar1 => Pul2* => Tovar2* => Pul3*...

*sikl natijasidagi yutuq: Pul1<Pul2<P3<.....

Ushbu formulani iqtisodiy jaroyonlarga nisbatan rasmiylashtirsak quyidagi ko‘rinishga keladi.

PM=>R=>ICH=>TF=>XK=>PM*...

Bunda PM-pul mablag‘lari

PM*-Sikl natijasidagi yutuq: PM < PM*<PM**<PM***<.....

R-resurslar

ICH-ishlab chiqarish

TF-tijorat faoliyati

XK-hisob-kitoblar

Korxona aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

Korxona aktivlarlari va majuriyatlarini baholash.

Baholash - aktivlar va majburiyatlar e’tirof etiladigan va moliyaviy

hisobotlarda qayd etiladigan pul o‘lchovining usulidir.

Moliyaviy hisobotlarda baholashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

Boshlang‘ich qiymat. Aktivlar sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra belgilangan joriy qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag‘lar summasida aks ettiriladi.

Joriy qiymat. Aktivlar ana shu yoki shunga o‘xshash aktiv endigina sotib olingan bo‘lgandagi holatda to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha hisobotda aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to‘lash qiymati bo‘yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasidir.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar xo‘jalik yurituvchi subyektning normal faoliyati davomida aktivlarni ko‘paytirishi lozim bo‘lgan bo‘lg‘usi pul mablag‘lari tushumining diskontlangan qiymati bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

**10-jadval**

**Buxgalteriya balansi elementlari va ularning tasnifiy belgilari**

| **Buxgalteriya balansi elementlari** | **Tavsifi** | **Tarkiy to‘zilishi** |
|---|---|---|
| Aktivlar | Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir | Uzoq muddatli aktivlar: |
| | | -Asosiy vositalar: |
| | | -Nomoddiy aktivlar |
| | | -Uzoq muddatli investitsiyalar |
| | | -O‘rnatiladigan asbob-uskunalar |
| | | -Kapital qo‘yilmalar |
| | | Joriy aktivlar: |
| | | -Tovar moddiy zaxiralar |
| | | -Debitorlar |
| | | -Pul mablag‘lari |
| | | -Qisqa muddatli investitsiyalar |
| Xususiy kapital (sarmoya) | Subyektnig majburiyatlarini chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir | O‘z mablag‘lari manbasi: |
| | | Ustav kapitali |
| | | Ko‘shilgan kapital |
| | | Zaxira kapitali |
| | | Taqsimlanmagan foyda |

| | | |
|---|---|---|
| | | Maqsadli tushumlar |
| | | Kelgo‘zi davr to‘lovlar zaxirasi |
| Majburiyatlar | Shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talba qilishga xaklidir | Uzoq muddatli majburiyatlar |
| | | |
| | | Joriy majburiyatlar |

Majburiyatlar kelgusida o‘tkaziladigan pul mablag‘larining diskontlangan qiymatidan iborat bo‘lgan, xo‘jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to‘lash uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Balans qiymati - hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlang‘ich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

## 3-mavzu. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tahlili

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

**Daromad-, / Xarajat=N*100 Foyda (zarar)/ Rentabellik**

Daromadlar - hisobot davrida aktivlarning ko‘payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir.

Aktivlarning ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lg‘usi iqtisodiy foydaning o‘lchangan ko‘payishi paydo bo‘lganda, daromad moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu esa daromadni aks ettirish aktivlarning ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi (masalan, tovarlar va xizmatlarni sotishda yuzaga keladigan aktivlardagi sof ko‘payish yoki kreditor qarzdan bosh tortishi natijasida majburiyatlarning kamayishi).

Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko‘payishidir.

Xarajat aktivlarning kamayishi va majburiyatlarning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lg‘usi iqtisodiy fondaning o‘lchangan kamayishi paydo bo‘lganda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi va bu ishonchli tarzda belgilanishi mumkin. Bu esa xarajatlarni aks ettirish majburiyatlardagi

ko‘payish yoki aktivlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi.

Moliyaviy natijalar - xo‘jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Yalpi daromad xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan rentadan olinishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt asosiy bo‘lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlar daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o‘z ichiga oladi va konseptual asosning alohida tarkibiy qismlari deb hisoblanmaydi.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va zararlar bilan bog‘liq. xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag‘lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo‘ladi.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va konseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko‘rsatiladigan bo‘lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lishi mumkin va shuning uchun ham ular alohida ko‘rsatiladi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo‘li bilan ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati davomida va faoliyat jarayonidagi favqulodda holatlarda yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlarning moddalari o‘rtasidagi chegara umumiy qabul qilingan amaliyotdir. Bunday chegaralash xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag‘larini ko‘paytirish qobiliyatiga baho berishda ahamiyatli bo‘lgan moddalarning manbalari asosida o‘tkaziladi. Moddalarni chegaralashda xo‘jalik yurituvchi subyektning tabiati va uning faoliyati bilan hisoblashish kerak. Bitta xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati natijasida paydo bo‘ladigan moddalar boshqalariga qaraganda favqulodda bo‘lishi mumkin.

Daromadlar va xarajatlarning moddalari o‘rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo‘jalik yurituvchi subyektning ish

natijalarini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo‘limlar har xil moddalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot soliqqa tortilishgacha va undan keyingi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadni ko‘rsatadi.

Omonat egalarining xususiy sarmoyaga ulushlari daromad hisoblanmaydi; xususiy sarmoyaning egalari o‘rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi.

Daromadlar va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy farq qiluvchi jihatlarini ochib beradi, lekin ularni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda e’tirof etiщdan oldin javob berishi lozim bo‘lgan mezonlarni aniqlashtirmaydi.

Hisobot davridagi sof daromad yoki zarar quyidagi elementlar asosida aniqlanadi, ularning har biri moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda ochib berilishi lozim:

Xo‘jalik umumiy faoliyatidan olingan daromad yoki ko‘rilgan zarar;

Favqulodda daromad (zarar);

Daromad solig‘i to‘langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda yoki zarar);

Daromad solig‘idan tashqari sof foyda.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi  muhim ko‘rsatkichlarni aniqlash usulini quyidagi chizmada ko‘rib chiqish mumkin (2.1.-chizma).

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (Yamn) | = | Mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan kelgan sof tushum (St) | - | Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi (Tn) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Asosiy ishlab chiqarish fao-liyatining moliyaviy natijasi (Mfmn) | = | YAMN | - | Davr xarajatlari (Dx) | + | Boshqa operatsion daromadlar (Bd) |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Moliyaviy faoliyat natija si (Mfn) | = | Moliyaviy faoli-yatdan kelgan daromadlar (Mfd) | - | Moliyaviy faoli-yatga ketgan xarajatlar (Mfx) |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Tasoddifiy (favqulotda) foyda yoki zarar (Tf) (Tz) | = | Tasoddifiy daromad (Td) | - | Tasoddifiy xarajat (Tx) |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Soliq to‘lan-ganga qadargi umumiy moliya-viy natija foyda (Yaf) | = | Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Mfmn) | + | Mfn | + | Tf |
| Sof foyda (Sf) | = | Soliq to‘lan-ganga qadargi umumiy moliya-viy natija foyda Yaf | - | Soliqlar va ajratmalar (S) | | |
| Taqsimlanmagan foyda (Tmf) | = | Sof foyda (Sf) | - | Dvidendlar (Dv) | | |

**1.1-Chizma. Korxonada moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni va ularni aniqlash yo‘llari**

**Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot.** Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlaydi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo‘lib xizmat qilish bilan foydalidir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot pul tushumlari va to‘lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi:

-operatsion faoliyat;

-investitsiya faoliyati;

-moliyaviy faoliyat.

Har uch toifaning pul mablag‘iga birgalikda ta’siri hisobot davrida pul mablag‘ining sof o‘zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi axborot bo‘lajak pul oqimlari prognozi to‘griligini tekshirish chog‘ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o‘zgarishi ta’siri o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog‘ida zarur bo‘ladi.

Operatsion faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyatidir.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotishlarni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsiya, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishi lozim bo‘ladi.

Xorijiy valyutadagi operatsiyalardan pul oqimlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo‘yilgan almashtirish qiymatidan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi.

**Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot.** Xususiy kapital (sarmoya) tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunida, BXMS da keltirilgan[1].

Xususiy kapital (sarmoya) - subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir.Xususiy kapital (sarmoya) tarkibiga:

-ustav kapitali;

-qo‘shilgan kapital;

-rezerv kapitali;

-taqsimlanmagan foyda (Qoplanmagan zarar) kiradi.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital (sarmoya) va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan o‘z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital (sarmoya) tarkibida bo‘lgan o‘zgarishlar: qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog‘ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to‘g‘risidagi axborotlar ochib beriladi.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobotda shuningdek chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni to‘g‘risidagi axborotlar ham ochib berilishi kerak.

Qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan

---

[1] Uzbekiston respublikasining “Buxgalteriya xisobi tugrisida”gi kounun 2016-yil 13-aprel, 7-modda- Buxgalteriya xisobi obyektlari., 19-modda-Xususiy kapitalni xisobga olish., 22- modda-Moliyaviy xisobot.
“Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da (ro‘yxat raqami 474-son, 1998-yil 14-avgust, Me’yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999-yil, 5-son)

aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra kamayib ketganligi haqidagi ma’lumotlar ushbu hisobotga tushuntirishlarda ochib yebrilishi kerak.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobotga tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotlar keltiradilar:

- obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;
- nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;
- aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi;
- ayrim turlar va toifalar bo‘yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;
- imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanmagan jamlangan dividendlar summasi;
- aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, xususan, to‘lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to‘g‘risida;
- hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo‘shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo‘shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to‘g‘risidagi.

**Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.** Moliyaviy hisobotga sharxlar. Turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko‘p qirraliligi hisobga olinadi, moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan barcha axborot bilan ta’minlay olmaydi, shu sababli yillik moliyaviy hisobotlarga qo‘shimcha ravishda ma’muriyat tomonidan tuziladigan moliyaviy sharh kiritiladi, unda xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyati va moliyaviy holatining asosiy belgilari tushuntirib beriladi va ular duch kelayotgan asosiy noaniqliklar bayon qilinadi. Bu sharhda xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati natijalariga, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun investitsiya siyosatiga, jumladan joriy davrda, xususan kelgusi davrlarda dividendlar siyosatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar ochib beriladi.

Qo‘shimcha axborotni taqdim etish - tushuntirishlar, izohlar va hisob-kitoblar - xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan maxsus shaklda yoki erkin shaklda taqdim etiladi.

Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar jadvallar shaklida ham, boshqacha tarzda ham bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo‘jalik

operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga guruhlaydi. Aktivlar, xususiy sarmoya va majburiyatlar buxgalteriya balansida xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bevosita bogʻliq boʻlgan elementlaridir. Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari toʻgʻrisidagi hisobotda xoʻjalik yurituvchi subyektning koʻrsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bogʻliq boʻlgan elementlaridir. Pul mablagʻlarining harakati toʻgʻrisidagi hisobot faoliyat natijalari va buxgalteriya balansi elementlaridagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi hisobotning elementlaridir.

### 3. 3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, uni tuzish va tahlil etish usullari.

Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faollashuvi, chet el investitsiyalarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga keng jalb etilishi xoʻjalik yurituvchi subyektlarga buxgalteriya hisobi yuritish va moliyaviy hisobot tuzishni ham jahon standartlari talablariga javob beradigan darajada tashkil etish talabini qoʻymoqda.

Bu esa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga tayanilgan, “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi Qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarga asoslangan Buxgalteriya hisobining milliy standart (BHMS) larini ishlab chiqish zaruriyatini paydo qiladi. Ushbu standartlar buxgalteriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda korxonalarning mustaqilligini.

Ma’lumki, har bir mamlakatning oʻziga xos hisob tizimi va hisobot tuzish usullari mavjud. Lekin kapitalning bir necha mamlakatlar miqyosida faoliyat koʻrsata boshlashi natijasida xalqaro hisob standartlarini ishlab chiqish zaruriyati paydo boʻldi. Ushbu masalani hal qilish va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadida 1973-yilda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari boʻyicha qoʻmita tashkil etilib, qoʻmita tomonidan 2011-yil 21-fevral holatiga “Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti” nomli 36 ta xalqaro standarti ishlab chiqilgan. Bundan tashqari yuqoridagi standartlarga 18 nomdagi tushuntirishlar hamda 11 nomdagi izohlar ishlab chiqilgan. Xalqaro standartlarda belgilangan qoidalar tavsiyaviy tavsifga ega boʻlib.

Oʻzbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti rahbarlik qilish, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan. Moliya vazirligi buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobot tuzishda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yoʻnalishida ishlar olib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan bugungi kungacha 0 dan 24-songacha boʻlgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab

chiqilib tasdiqlangan. Ularda hisob yuritishning asosiy tamoyillari va qoidalari mujasamlashgan shu vaqtgacha tasdiqlangan va amaliyotda qo‘llanilayotgan buxgalteriya hisobi standartlari quyidagilardir (jadval).

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o‘tish bo‘yicha qator tadbirlar majmui amalga oshirib kelinmoqda

**Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash.** Transformatsiya latincha transformatio co‘zidan olingan bo‘lib– o‘zgartirish, qayta tashkil etish degan ma’noni anglatadi.

Buxgalteriya hisobida transformatsiya deganda mamlakatimizda amal qilingan qonunchilikka muvofiq hisob tizimidagi qoidalar, tamoyillar, usul va uslublarni hamda axborotlarni boshqa mamlakat yoki xalqaro qoidalariga muvofiqlashtirgan holda aylantirishga aytiladi.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasi - bu hisobot sanasi holati bo‘yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, to‘g‘irlashlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga ag‘darish va qayta tashkil qilish jarayoni tushuniladi.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) qo‘llanilishi majburiy xarakterdagi hujjat emas, u tavsiyanoma xarakteriga ega. Unda milliy standartlaridagi kabi korxonalar taqdim etishi shart bo‘lgan moliyaviy hisobot shakllarini belgilamaydi. MHXSlari moliyaviy hisobotning asosiy komponentlari va ularda aks ettiriladigan minimal axborotlar tarkibini belgilaydi. MHXSlarini qo‘llash kompaniyaning mutlaq vakolatidagi masaladir.

MHXSlariga o‘tish yoki BHMSlari asosida tuzilgan MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish quyidagi imkoniyatlarni yaratiladi:[2]

MHXSlariga o‘tish yoki BHMSlari asosida tuzilgan MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: kompaniya faoliyati natijalarining shaffofligini oshiradi; axborot foydalanuvchilarda bitta kompaniya doirasida moliyaviy ko‘rsatkichlarni davrlar bo‘yicha hamda bir nechta xil kompaniyalar bo‘yicha esa talluqli ko‘rsatkichlarni bir-biriga solishtirib tahlil o‘tkazish imkoniyati tug‘iladi; kreditorlar, aksiyadorlar, kredit beruvchi tashkilotlarda kompaniyaga ishonch oshadi va yuqori ishonch bilan kompaniya faoliyatiga pul qo‘yadi, kompaniyaning kredit olish imkoniyati kengayadi; xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlar bilan hamkorlik yuksaladi; dunyo bozorlariga chiqish, xomashyo, valyuta, mehnat birjalariga,

[2] “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017-yil № 5 3, 2017 www.iqtisodiyot.uz

xalqaro kapital bozoriga chiqish imkoniyatlari tug‘iladi; kompaniya menejerlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ishonchli, obyektiv, uyg‘un hamda o‘z vaqtida tizimlashgan moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari yuzaga keladi; kompaniya faoliyatini byudjetlashtirish, rejalashtirish va strategik rivojlanishini baholashda zarur axborotlar ta’min etiladi; kompaniya boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirishga erishiladi; kompaniyalarda korrupsiya elementlari, suiste’mollik qilish, soliq obyektlarini yashirish, talon-taroj qilish, mahalliychilik, xo‘jasizlik, bankrotlik holatiga olib kelish holatlari barham topadi; mehnatni rag‘batlantirish tizimi tubdan yaxshilanadi, moddiy manfaatdorlik oshadi. kuchli nazorat tizimi o‘rnatiladi; ma’naviy muhit barqarorlashadi; xodimlarda ishiga, kompaniyasiga va vataniga sodiqlik xislatlari bir-biriga uyg‘unlashadi; xodimlarda o‘z ustida ishlash va malakasini muntazam oshirish imkoniyatlari tug‘iladi; professionallikka qiziqish va harakat kuchayadi.

MHXSlariga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tib bo‘lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo‘yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo‘llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shart- sharoit va ma’lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart.

Bu boradi mamlakatda moliya, pul-kredit, soliq, mehnat qonunchiligi dunyo standartlariga uyg‘un bo‘lishi, milliy valyutaning erkin konvertatsiyalanishiga erishish,yuqori inflyatsiya darajasi bo‘lmasligi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari MHXSlariga uyg‘un bo‘lishini, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, nizomlar, yo‘riqnomalar va qoidalar ham bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirilshi, professional buxgalterlar institutini tashkil etish, sertifikatli buxgalter va auditorlarning professional malakasini oshirish, SAR va CIPA sertifikatlarining keng joriy qilish, buxgalterlarning chet ellarda malaka oshirishini, chet tillarini o‘rganishi (IELTS), amaliyotchi buxgalterlarda xalqaro dasturlarda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, moddiy rag‘batlantirish tizimi, etika qoidalarini belgilash, hisob siyosatini mukammallashtirish, xalqaro standart talablariga muvofiq ishchi schetlar rejasini ishlab chiqishga erishish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni maxsus dasturlar asosida yuritilishini takomillashtirish lozim.

Transformatsiya jarayonining asosiy muhim qoidalari:

– MHXSlari bo‘yicha hisob yuritish har bir kompaniyaning mustaqil hal qiladigan ishi, uning zarurligini va unga o‘tishni mustaqil belgilaydi;

– MHXSlari majburiy emas, ushbu hujjat faqat harakat qilishga turtki beradi;

– MHXSlarida bo‘yicha hisob yuritishda iqtisodiy mazmunning shakldan ustunligi amal qiladi;

– MHXSlari adolatli baholashga ustuvor ahamiyatni qaratadi;

– MHXSlari bo‘yicha hisob yuritish usulini (transformatsiya yoki parallel hisob yuritish) tanlash kompaniyaning ichki ishi;

– transformatsiyaning yagona algoritmi va ketma-ketligi yo‘q;

– transformatsiyaga har bir holatda individual yondashiladi;

– transformatsiya murakkab jarayon, professional yondashuvni talab qiladi;

– transformatsiyaning metodikasi va bosqichlari mustaqil belgilanadi;

– reklassifikatsiya, qayta baholash, korrektirovka provodkalari transformatsiyaning asosiy usullaridir.

Birinchidan, milliy standartlar bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot komponentlari, shuningdek balans, foyda va zararlar va boshqa hisobot moddalarining kengaytmalari aks ettirilgan analitik hisob ma’lumotlari, kerak bo‘lsa boshlang‘ich hujjatlarni tayyorlash lozim.

Ikkinchidan, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini qayta klassifikatsiyalash, qaytadan baholash o‘tkazish. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda ham har bir tegishli moddani xalqaro standartlarga mos holda qayta klassifikatsiya qilish va baholash. Xuddi shuningdek, boshqa hisobot moddalarini ham birma-bir xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish choralarini ishlab chiqish kerak.

Uchinchidan, MHXSlari darajasiga yetkazish uchun tegishli to‘g‘irlashlar kiritish, qo‘shimcha provodkalar jadvalini ishlab chiqish kerak.

To‘rtinchidan, tegishli to‘g‘irlashlar buxgalteriya provodkalari yordamida kiritilgandan keyin MHXSlari talablariga muvofiq keladigan hisobotni tuzish.

Beshinchidan, MHXSlariga o‘tishda atamalardan to‘g‘ri foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Milliy standartlar asosida tuzilgan hisobotlardagi atamalar, ko‘rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqarmasini xalqaro standartlarga mos keladigan atamalarga o‘tkazish lozim. Agarda ko‘rsatkich qayta guruhlanish, baholash asosida qiymati xalqaro standartlarga muvofiq kelsada uning nomlanishi muvofiq bo‘lmasa, uni o‘qish qiyinlashadi, chalkashliklarga olib keladi. Shu bois, atamalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi.

Milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotga transformatsiya qilishning yagona metodologiyasi mavjud emas. Har bir korxona o‘zining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati xususiyati, resursi va xodimlarining professional darajasidan kelib chiqib transformatsiya jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi kerak:

• kompaniyada MHXSlari bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotiga zaruriyat bo‘lishi kerak.

• milliy standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot obyektiv, ishonchli, uyg‘un va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlariga to‘liq muvofiq kelishi kerak.

• korxonaning zamonaviy menejment, boshqaruv tizimi mavjud bo‘lishi kerak.

• kompaniya barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lishi kerak.

• kompaniyada MHXSlarini biladigan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida chuqur professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan, iqtisodiy matematikani qo‘llay oladigan mutaxassislarga ega bo‘lishi kerak.

# IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## 1-modul. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Buxgalteriya balansi aktivi va passivi tahlilining xususiyatlari.

### Nazorat uchun savollar

Buxgalteriya balansi nima?

Buxgalteriya balansini tavsiflab bering?

Buxgalteriya balansi turlarini ajrating va tasniflang?

Buxgalteriya balansini tuzish koidalarini tasniflang?

Aktivlar nima?

Kapital nima?

Majburiyatlar nima?

Balansga ilovalar, kaydlar va tushuntirishlarni izoxlang?

Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini tasniflang?

Balans moddalari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma’lumotlariga mosligini tushuntiring ?

Buxgalteriya balansini “o‘qish”ni tasniflang?

Buxgalteriya balansining gorizontal tahlili?

Buxgalteriya balansining vertikal tahlili?

Buxgalteriya balansining trendli tahlili nima?

Korxona moliyaviy holatining tahlili?

Korxonalar iqtisodiy salohiyati nima?

Korxona iqtisodiy saloxiyati tarkibiga nimalar kiradi?

Korxona iqtisodiy salohiyatning ko‘rsatkichlar tizimi?

Korxona iqtisodiy salohiyat samaradorligi va uning tahlili?

Korxonalar moliyaviy salohiyati nima?

Korxona moliyaviy salohiyati tarkibiga nimalar kiradi?

Korxona moliyaviy saloxiyati ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tahlili?

Korxona moliyaviy saloxiyati samaradorligi va uning tahlili?

Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo‘yicha turkumlanishi?

Doimiy xarakatdagi aktivlar nima?

Tez pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?

Sekin pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?

Qiyin pulga aylanadigan aktvilarga nimalar kiradi?

To‘lov muddati kelgan majburiyatlarga qanday majburiyatlar kiradi?

Qisqa muddatli majburiyatlar nima?

Uzoq muddatli majburiyatlar nima?

Doimiy passivlar nima?

Likvidlikni mutlaq va nisbiy ifodalari?

**1-topshiriq.O‘zbekiston temir yo‘llari AJ ning qisqartirilgan buxgalteriya balansi asosida dastlabki xulosa tayyorlang:**

| Ko‘rsatkichlar | Davr boshiga | Davr oxiri | Farqi, +,- |
|---|---|---|---|
| **AKTIV** | | | |
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | 10 219 731 945 | 12 593 199 960 | 2 373 468 015 |
| Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymati | 10 527 417 487 | 14 773 593 626 | 4 246 176 139 |
| Asosiy vositalar eskirish qiymati | 3 423 307 367 | 4 320 658 666 | 2 991 241 501 |
| Asosiy vositalar qoldiq qiymati | 7 104 110 120 | 10 452 934 960 | 3 348 824 840 |
| Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati | 417 151 | 345 379 | 71 772 |
| Kapital qo‘yilmalar | 2 834 711 892 | 1 572 602 311 | 1 262 109 581 |
| Boshqa uzoq muddatli aktivlar | 280 492 782 | 567 317 310 | 6 331 746 |
| 2.Joriy aktivlar | 2 978 372 713 | 11 683 693 105 | 8 705 320 392 |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 819 530 511 | 1 047 437 972 | 227 907 461 |
| Kelgusi davr xarajatlari | 1 366 091 169 | 8 441 062 224 | 7 074 971 055 |
| Pul mablag‘lari | 171 917 383 | 468 669 767 | 296 752 384 |
| Boshqa joriy aktivlar | 117 495 315 | 160 480 738 | 42 985 423 |
| Debitorlar, jami | 503 338 335 | 1 566 042 404 | 1 062 704 069 |
| Shu jumladan: | | | |
| Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar | 163 855 350 | 268 038 094 | 104 182 744 |
| Byudjetga avans to‘lovlari | 7 740 384 | 5 252 951 | 2 487 433 |
| Balans aktiv bo‘yicha jami | 13 198 104 658 | 24 276 893 065 | 11 078 788 407 |
| **PASSIV** | | | |
| 1.O‘z mablag‘lari manbasi | 7 745 794 466 | 10 124 233 076 | 2 378 438 610 |
| Ustav kapitali | 614 384 306 | 828 202 670 | 213 818 364 |
| Rezerv kapitali | 5 737 851 427 | 8 121 422 920 | 2 383 571 493 |
| Taqsimlanmagan foyda | 507 693 607 | 223 400 675 | 284 292 932 |
| Boshqa manbalar | 885 865 126 | 951 206 811 | 65 341 685 |
| 2. Majburiyatlar | 5 452 310 192 | 14 152 659 989 | 8 700 349 797 |
| Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari | 4 675 490 146 | 12 304 013 149 | 7 628 523 003 |
| Boshqa majburiyatlar | 14 744 216 | 8 878 479 | 5 865 737 |
| Kreditorlik majburiyatlari, jami | 762 075 830 | 1 839 768 361 | 1 077 692 531 |
| Shu jumladan: | | | |
| Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar | 219 818 890 | 514 650 184 | 294 831 294 |
| Byudjetga majburiyatlar | 20 798 130 | 62 317 043 | 41 518 913 |
| Balans passivi bo‘yicha jami | 13 198 104 658 | 24 276 893 065 | 11 078 788 407 |

Xulosa: korxonaning jami aktivlar xajmi davr boshiga nisbatan

11 078 788 407  ming so‘mga ortgan. Shundan uzoq muddatli aktivlar xajmi 2 373 468 015 ming so‘mga, joriy aktivlar xajmi 8 705 320 392 ming so‘mga ortgan.

Kapital va majburiyatlar xajmi davr boshiga nisbatan mos ravishda 2 378 438 610 ming so‘m va 8 700 349 797 ming so‘mga ortgan.

Korxonada jami passivlar tarkibida o‘z mablag‘lari (xususiy kapital) darajasi davr boshida 58.6 foizni tashkil etgan bo‘lsa davr oxiriga kelib 41.7 foizga tushgan. Joriy davrdagi ushbu o‘zgarish asosan uzoq muddatli qarz kapitalining keskin ravishda ortishi hisobiga ro‘y bergan.

## 2-topshiriq. Buxgalteriya balansi aktivi va passivini o‘qish asosida xulosa tayyorlang

| Mol-mulk tarkibi | Yil boshiga | Yil oxiriga | Mablag‘lar manbasi | Yil boshiga | Yil oxiriga |
|---|---|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli aktivlar(satr 012+022+030+090+100+110+120) | 10 219 731 945 | 12 593 199 60 | O‘z mablag‘lari manbalari (satr.410+420+430+440+450+460+470) | 7 745 794 466 | 10 124 233 076 |
| Joriy aktivlar | 2 978 372 713 | 11 683 693 105 | Majburiyatlar | 5 452 310 192 | 14 152 659 989 |
| Shu jumladan: | | | Shu jumladan: | | |
| Tovar moddiy zaxiralar (satr 150+160+170+180) | 819 530 511 | 1 047 437 972 | Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+570+580+590) | 4 675 490 146 | 12 304 013 149 |
| Kelgusi davr xarajatlari (satr 190) | 1 366 091 169 | 8 441 062 224 | | | |
| Kechiktirilgan xarajatlar (satr 200) | - | - | | | |
| Debitorlar jami : (satr 220+240+250+260+270+280+290+300+310) | 503 338 335 | 1 566 042 404 | Joriy majburiyatlar, jami (satr, 610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760) shu jumladan: | | |
| Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360) | 171 917 383 | 468 669 767 | Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar(satr 730+740) | 14 744 216 | 8 878 479 |
| Qisqa muddatli investitsiyalar (satr 370) | - | - | Uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi(satr 750) | - | - |
| Boshqa joriy aktivlar (satr 380) | 117 495 315 | 160 480 738 | Kreditorlik qarzlari satr, 610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+760 | 762 075 830 | 1 839 768 361 |
| Balans aktivining jami | 13 198 104 658 | 24 276 893 065 | Balans passivining jami | 13 198 104 658 | 24 276 893 065 |

Xulosa: korxonada jami aktivlar summasi yil boshida 13 198 104 658 ming sumni tashkil etgan va shundan uzoq muddatli aktivlar summasi 10 219 731 945 ming sumni, joriy aktivlar sumasi esa 2 978 372 713 ming sumni tashkil etgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va harajatlar davr boshida 819 530 511 ming so‘mni davr oxirida 1 047 437 972 ming so‘mni tashkil etgan. Pul mablag‘lari davr boshida 171 917 383 ming so‘mni, davr oxirida esa 468

669 767 ming so‘mni tashkil qilgan. Debitorlik majburiyatlari davr boshida 503 338 335 ming so‘mni, davr oxirida 1 566 042 404 ming sumni tashkil etgan.

Aktivlarning manbalash yuzasidan korxona passivlari quyidagi tarkibda shakllangan. Davr boshiga 7 745 794 466 ming so‘mlik o‘zlik mablag‘lari manbasiga va 5 452 310 192 ming sum majburiyatlarga, davr oxiriga kelib esa 10 124 233 076 ming so‘m o‘zlik mablag‘lari manbasi va 14 152 659 989 ming so‘m majburiyatlar summasi mavjudligi qayd etilgan.

## 2-amaliy mashg‘ulot.
## Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tahlili
### Nazorat uchun savollar

Moliyaviy natijalar nima?

Moliyaviy natijaga daxldor elementlar va ularning tasnifi?

Daromadlar nima?

Xarajatlar nima?

Foyda va zararlar nima?

Moliyaviy natiajalarni ’arakterlovchi ko‘rsatkichlar tizimi?

Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlilining ahamiyati?

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzishning muxim qoidalari?

Moliyaviy natijalar tahlilini maqsadi va vazifalarini tushuntiring?

Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan bog‘liqligi izoxlang?

Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo‘llarini tushuntiring?

Xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlariga nimalar kiradi?

Marjinal foyda qanday aniqlanadi?

Marjinal foyda tahlili mazmuni?

Mahsulot sotishdan ko‘rilgan yalpi foyda va unga ta’sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?

Xarajatlarning turlari va ularning tavsifi?

Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo‘llari?

Xarajatlar o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo‘llari?

Asosiy va umumxo‘jalik faoliyati foydasi (zarari) nima?

Asosiy faoliyatdan foyda zararlar qanday aniqlanadi?

Favqulodda foyda va zararlar nima?

Soliq to‘langunga qadar foyda tahlili mazmuni?

Byudjetga to‘lovlar va ajratmalar tahlilini tushuntiring?

Soliq to‘lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili?

Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo‘llari?

Sof foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili?

Rentabellik ko‘rsatkichlari va ularga ta’sir etuvchi omillar tahlili?

Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini tasniflang?

**4-topshiriq.O‘rnatilgan nomenklatura (assortiment ) bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish reja bajarilishini tahlili.**

| **Mahsulot nomlari** | **Mahsu-lot birligining baxosi, so‘mda** | **Ishlab chiqarilgan mahsulot mikdori (dona)** | | | **Ishlab chikarilgan mahsulot qiymati ming so‘mdan** | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Reja** | **Xaqi-qatda** | **Reja baja-rilishi** | **Re-ja** | **Xaqi-qatda** | **Belgilan-gan assorti-ment hisobiga** |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1 mahsulot | 12000 | 840 | 857 | | | | |
| 2 mahsulot | 13200 | 1355 | 1440 | | | | |
| 3 mahsulot | 8400 | 780 | 510 | | | | |
| 4 mahsulot | 9700 | 600 | 600 | | | | |
| 5 mahsulot | 8850 | 1100 | 1220 | | | | |

**5-topshiriq.Quyida berilgan jadval ma’lumotlariga asosan umumlashgan ko‘rsatkichni aniqlang va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlang.**

| **Ko‘rsatkichlar** | **O‘lchov birligi** | **Biznes ryejada** | **Haqiqatda** |
|---|---|---|---|
| 1. Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni | kishi | 130 | 135 |
| 2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi-kunlari. | kun | 240 | 210 |
| 3. Ish kuni uzunligi | soat | 8,00 | 7,65 |

## 3-amaliy mashg‘ulot.
## Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining tahlili.

### Nazorat uchun savollar

Pul mablag‘larini oqilona boshqarish nima uchun zarur?

Pul oqimlarining sof harakati nima?

Pul mablag‘lariga qanday mablag‘lar kiradi?

Pul ekvivalentlariga nimalar kiradi?

Pul oqimlari deganda nimani tushunasiz?

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va mazmunini tushuntiring?

Operatsiya faoliyatdan pul oqimiga nimalar kiradi?

Investitsiya faoliyatidan pul oqimiga nimalar kiradi?

Moliyaviy faoliyatdan pul oqimiga nimalar kiradi?

Pul oqimini tahlil etishni o‘rganish maqsadi va vazifalari?

Tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va ularning kamchiliklari?

Korxonaning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?

Tadbirkorlik subyektlarining daromad keltiruvchi faoliyat turlariga nimalar kiradi?

Pul mablag‘laridan samarali foydalanishni tashkil etishni qanday yo‘lga qo‘yish mumkin?

Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo‘yicha farqlanishini tushuntiring?

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlarini tasniflang?

Pul oqimining yo‘nalishlari (cash flow) nimalar kiradi?

Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlilini tushuntiring?

Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili?

Pul oqimlarining bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlilini tushuntiring?

Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubini tushuntiring?

Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlilini izoxlang?

Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash?

Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tushuntiring?

Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlilini tushuntiring?

Pul oqimlaridagi o‘zgarish tendensiyalarini tahlilini tushuntirib bering.

Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tasniflab bering?

Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlilini tushuntiring?

### 6-topshiriq. Pul mablag‘lari oqimini baholash hisob-kitobi asosida xulosa tayyorlang

| № | Ko‘rsatichlar | Pul oqimi | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Kirim | | Chiqim | |
| | | Summasi | Salmog‘i | Summasi | Salmog‘i |

| | | M.s. | % | M.s. | % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Asosiy faoliyatdan | 795019 | 98.69 | - | - |
| 2. | Investitsiya faoliyatidan | - | - | 213370 | 46.65 |
| 3. | Moliyaviy faoliyatdan | 10541 | 1.31 | - | - |
| 4. | To'langan soliqlar | - | - | 243994 | 53.35 |
| 5. | Jami pul mablag'larining harakati: | 805560 | 100 | 457364 | 100 |

**7-topshiriq. Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatinnng tahlili asosida xulosa tayyorlang**

| Ko'rsatkichlar | Satr raqami | Pul mablag'lari kirimi | | Pul mablag'lari Chiqimi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Summa, ming sum | Jamiga nisbatan salmog'i,% | Summa, Ming so'm | Jamiga iisbatan salmog'i,% |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1.Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari | 010 | 1273588 | 66.67 | - | - |
| 2.Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari | 020 | - | - | 271348 | 24.33 |
| 3. Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari | 030 | - | - | 616535 | 55.28 |
| 4.Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari | 040 | 636669 | 33.33 | 227355 | 20.39 |
| Jami: | - | 1910257 | 100 | 1115238 | 100 |
| Operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi | 050 | 795019 | 41.62 | - | - |

## 4-amaliy mashg‘ulot

## Xususiy kapital va uning o‘zgarishini tahlili. Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlili.

### Nazorat uchun savollar

Xussuiy kapital nima?

Xususiy kapital tarikbiy elementlariga nimalar kiradi?

Xususiy kapital bilan o‘z mablag‘lari manbasi orasida farq bormi?

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobtni tuzib tartibi va qoidalarini tushuntiring?

Ustav kapitali qanday shakllantiriladi va uning o‘zgarish sabablarini, yo‘llarini tasniflab bering?

Rezerv kapitali qanday shakllantiriladi va nimalarga ishlatiladi?

Qo‘shilgan kapital qandy shakllanadi?

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) balansda aks ettirish tartiblarini tushuntiring?

Sotib olingan xususiy aksiyalar qatorida nimalar, qachon va qanday aks etadi.

Maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar nima?

Kelgusi davr to‘lovlari zaxirasi qanday shakllantiriladi?

Xususiy kapitalning o‘zgarishi, dinamikasini tahlil etish nimaga kerak?

Xususiy kapital va uning daromadligini tahlilini qimlar va nima maqsadda o‘tkazadilar?

Xussiy kapitalning rentabelligi qanday aniqlanadi va uning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir etadi?

Moliyaviy leveridj nima uni aniqlash tartiblarini tushuntiring?

Moliyaviy va ishlab chiqarish leveridjlarini bog‘ligi mavjudmi?

Xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarga, moliyaviy koeffitsentlarga qaysi ko‘rsatkichlar kiradi?

Sof aktivlar nima?

Sof aktivlar qanday aniqlanadi va uning mazmuni nima?

**8-topshiriq. Xususiy kapital to‘g‘risidagi xisobot va uning tarkibiy birliklari(“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ) asosida xulosa tayyorlang**

| Ko‘rsatkichlar nomi | Satr kodi | Ustav kapitali | Qo‘shilgan kapital | Rezerv kapitali | Taqsimlan-magan foyda (qoplan-magan zarar) | Sotib olingan xususiy aksiyalar | Maqsadli tushumlar va boshqalar | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| Yil boshidagi qoldiq | 010 | 614 384 | - | 5 737 851 | 507 694 | - | 885 865 | 7 745 794 |
| Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi | 020 | 213 818 | - | x | x | x | x | 213 818 |
| Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash | 030 | x | x | 2 383 571 | x | x | x | 2 383 571 |
| Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari | 040 | x | - | x | x | x | x | - |
| Rezerv kapitaliga ajratmalar | 050 | x | x | - | - | x | x | - |
| Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari) | 060 | x | x | x | - | x | x | - |
| Tekinga olingan mol-mulk | 070 | x | x | | x | x | x | - |
| Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar | 080 | x | x | x | x | x | - | - |
| Hisoblangan dividendlar | 090 | x | x | x | 284 293 | x | x | -284 293 |
| Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari | 100 | - | - | - | - | - | 65 341 | 65 341 |
| **Yil oxiridagi qoldiq** | **110** | 828 203 | - | 8 121 423 | 223 400 | - | 951 207 | 10 124 233 |
| Xususiy kapitalining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-) | 120 | +213 818 | - | +2 383 571 | -284 293 | - | +65 341 | +2 378 439 |
| **MA’LUMOT UCHUN:** | | | | | | | | |
| Chiqarilgan aksiyalar soni, dona[3] | 130 | x | x | x | x | x | x | 1830762911 |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| imtiyozli | 131 | x | x | x | x | x | x | |

[3] O‘zbekiston temir yo‘llari AJ ustavi(yangi taxriri) 2017-yil 23-oktyabr-22-son, №-397778 27.10.2017

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| oddiy | 132 | x | x | x | x | x | x | 1830762911 |
| Aksiyaning nominal qiymati | 140 | x | x | x | x | x | x | 430 |
| Muomaladagi aksiyalar soni, dona | 150 | x | x | x | x | x | x | 1830762911 |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| imtiyozli | 151 | x | x | x | x | x | x | |
| oddiy | 152 | x | x | x | x | x | x | 1830762911 |

## 9-topshiriq. Xususiy kapitalning gorizontal va vertikal tahlili asosida xulosa tayyorlang

| Ko‘rsatkichlar | Davr boshi | | Davr oxiri | | Farqi, +,- | | O‘sishi, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Summa** | **Foiz,%** | **Summa** | **Foiz,%** | **Summa** | **Foiz,%** | |
| O‘z mablag‘lari manbasi jami | **7 745 794 466** | **100** | **10 124 233 076** | **100.00** | **+2378438610** | **0.00** | **130,7** |
| Ustav kapitali | **614 384 306** | **7.92** | **828 202 670** | **8.19** | **+213818364** | **+0,27** | **134,8** |
| Qo‘shilgan kapital | **-** | **-** | **-** | **-** | **-** | | |
| Rezerv kapitali | **5 737 851 427** | **74.08** | **8 121 422 920** | **80.22** | **+2383571493** | **+6,14** | **141,54** |
| Sotib olingan xususiy aksiyalar | **-** | **-** | **-** | | | | |
| Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) | **507 693 607** | **6.55** | **223 400 675** | **2.08** | **-284292935** | **-4,47** | **-44,0** |
| Maqsadli tushumlar | **885 865 126** | **11.44** | **951 206 811** | **9.41** | **+65341685** | **-2,03** | **107,4** |
| Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar | | | | | | | |

**Xulosa:** Aksionerlik jamiyatida o‘z mablag‘lari mnabasi davr boshiga nisbatan +2378438610 ming so‘mga ortgan. O‘sish darajasi 130.7 foizni tashkil etgan. Shu jumladan ustav kapitalining o‘zgarishi mos ravishda +213818364 ming so‘mga, rezerv kapitalining o‘zgarishi +2383571493 ming so‘mga, maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar xajmi +65341685 ming so‘mga ortgan. O‘z mablag‘lari tarkibida taqsimlanmagan foyda summasi davr boshiga nisbatan -284292935 ming so‘mga qamaygan.

# V.MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

1.Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarishda moliyaviy hisobot tahlilining tutgan o‘rni, ahamiyati va vazifalari.

2. Moliyaviy hisobot tahlilining predmeti, mazmuni va vazifalari.

3. Moliyaviy hisobot tahlilining metodi va unda qo‘llaniladigan usullar.

4. Moliyaviy hisobot tahlilining oddiy-an’anaviy usullari va ularning tahlilni o‘tkazishdagi ahamiyati.

5. Moliyaviy hisobot tahlilining iqtisodiy-matematik usullari va ularning tahlil jarayonida qo‘llanilishi.

6. Moliyaviy hisobot tahlilining tahlilni tashkil etish va uning axborot manbalari.

7. Iqtisodiyot subyektlari marketing faoliyatini tahlili .

8.Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlili.

9.Mahsulot sotish hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili .

10.Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti hajmining tahlili.
11.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot turlarini yangilashning ahamiyati.

12.Mahsulot sifati va raqobatga bardoshliligini tahlili.

13.Mahsulot sifatini tahlil qilish usullari.

14.Moliyaviy va boshqaruv tahlilining predmeti haqidagi ilmiy nazariyalar.

15.Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining tahlili va uni takomillashtirish.

16.Mahsulot sotish hajmlarining tahlili va unga ta’sir etuvchi omillar.

17.Iqtisodiyot subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tahlili.

18.Maxsulot ishlab chiqarish va sotish rejasininig bajarilishini taxlili.

19.Maxsulotni sifatlilik darajasini taxlili.

20. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

21. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat omillarini tahlili.

22.Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat vositalari omillarini tahlili.

23.Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat buyumlari omillarini tahlili

24.Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natijalarni tahlili

25.Korxonani iqtisodiy salohiyatini tahlili

26.Marketing tizimidagi tahlil turlari va ularning asosiy usullari.

# VI.GLOSSARIY

| O‘zbek tilida | Ingliz tilida | Rus tilida | Mazmuni |
|---|---|---|---|
| Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi | Global financial-economical crisis | Mirovoy finansovo-ekonomicheskiy krizis | inqirozning turli sabablar tufayli bir davlat doirasidan chiqib tahlikali tarzda dunyo bo‘yicha yoyilishi. 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy jihatlari resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko‘lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo xajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlarning sodir bo‘lishi bilan izohlanadi. |
| Inqirozni ko‘lami, doirasi va oqibatlari | Sphere of crisis and its consequences | Diapazon i posledstviya krizisa | har qaysi davlatning moliya-valyuta tizimi nechog‘liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to‘lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank to‘zilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog‘liq. |
| Moliyaviy tahlilning zaruriyati | Essence of financial analysis | Neobxodimost finansovogo analiza | moliyaviy hisobotlarda aks etgan ma’lumotlar bazasiga tayangan holda korxonaning muayyan sanaga bo‘lgan holatiga baho berish orqali mavjud holat va uni istiqboldagi kutilishini maqsadli boshqarish yuzasidan boshqaruvchilarga axborotlar bazasini shakllantirib berishdagi say harakatlar tashkil etadi |
| Moliyaviy holatni bilish | Knowing financial position | Izucheniye finansovogo sostoyaniya | biznesning ko‘lamdorligiga, faoliyat samarasi va natijaviyligiga, aktivlar va ularning manbalanishidagi real holatga, subyektlarning bozordagi va ishdagi aktivlik darajasiga, mablag‘lar aylanuvchanligi, to‘lovga qobilllik va qodirlik darajasiga, salohiyat darajasiga baho berish usuli |
| Axborotlarni o‘qish | Reading information | Chteniye informatsii | metodik asosga tayangan va tartibli qoidalarga amal etgan holda manbalarni tasnifiy bayonlash |
| Iqtisodiy tashxis | Economical diagnosis | Postanovka ekonomiches | xo‘jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni, ularning moliyaviy |

| | | | |
|---|---|---|---|
| qo‘yish | | kogo diagnoza | to‘zilmasini, likvidligi va to‘lovga qobillligini, moliyaviy barqarorligini, daromad va harajatlarini, pul oqimlari o‘rganish orqali mavjud holatga va ularning kutilishiga baho berishda tahlilning rasmiy yakuni |
| Moliyaviy tahlil | Financial analysis | Finansovыy analiz | moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga, hamda ularning yaqin kelajakdagi kutilishlariga baho berish yuzasidan o‘tkaziladigan tahlildir |
| Boshqaruv tahlili | Managerial analysis | Upravlencheskiy analiz | xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy jarayonlar, ularning samaradorligini va ularning yakin kelajakdagi kutilishini ichki ma’lumotlar bazasiga tayangan holda aniq boshqaruv qarorlarini qa’bul etish yuzasidan o‘tkaziladigan tahlildir |
| Korxonaning moliyaviy holati | Financial state of entity | Finansovoye sostoyaniye predpriyatiya | deganda korxonalarning aktivlari, kapitali va majburiyatlarini tarkibiy to‘zilishi, to‘lovga qobillik va likvidlilik, daromad va harajatlarini baholash, pul oqimi va moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi qo‘rsatkichlarning muhim jihatlari majmuasi tushunila |
| Moliyaviy tahlil mazmuni | Content of financial analysis | Soderjaniye finansovogo analiza | xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini muayyan davriylikda, axborotlar oqimini uzluksiz jarayonida joriy va istiqbolli taktik boshqarishning zaruriy asosiga ega bo‘lgan qarorlarni tayyorlashga imkon beruvchi analitik jaroyonlarni tashkil etish va o‘tkazishdan iborot |
| Moliyaviy tahlil subyektlari | Subjects of financial analysis | Subyektы finansovogo analiza | tahlilning kimlar tomonidan o‘tkazilishi. Ichki moliyaviy tahlil subyektlariga shu korxonaning xodimlar tarkibida turuvchi xizmatchilar, tashqi tahlil subyektlariga (ta’sischilar, soliq organlari xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, haridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, sug‘urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar) kirishi mumkin |
| Tahlil subyektlarining | Interests of analysis subjects | Interesы subyektov analiza | deganda ularning tahlil o‘tkazishda nazarda tutiladigan qiziqishlari tushuniladi. Masalan; mulk egalari va ta’sischilar- |

| | | | |
|---|---|---|---|
| manfaatlari- | | | ko‘proq firma va kompaniyalarning foydasi bilan, kredit inspektorlari va bank xodimlari-firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol yetkazib beruvchilar va haridorlar - xo‘jalik subyektining to‘lov layoqatini o‘rganishdan, tahlil etishdan manfaatdorlar va.h.k |
| Moliyaviy hisobot | Financial statement | Finansovaya otchetnost | foydalanuvchilarning keng doirasining axborotlarga bo‘lgan talablarini qondirish uchun to‘ziladi va vaqti vaqti bilan taqdim etiladigan manblarni o‘z ichiga oladi Moliyaviy hisobotlar va ularga beriladigan izohlar, mo‘ljallar va tushuntirishlar moliyaviy hisobotni tarkibiy qismi hisoblanadi |
| Moliyaviy hisobotlar | Financial statements | Finansovыe otchetы | moliyaviy hisobotning alohida tarkibiy qismi bo‘lib BHMS asosida to‘ziladi va ularga berilgan izohlar, qo‘shimchalar, ma’lumotnomalar bilan to‘ldiriladi |
| Moliyaviy hisobotlarni maqsadi | Goal of financial statements | Sel finansovыx otchetov | alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari to‘g‘risida axborot foydalanuvchilarining erkin iqtisodiy qarorlari yuzasidan moliviy ahvol va uning kutilishi yuzasidan ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlashdan iboratdir |
